



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 170 sahifa,
16-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinova	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarning psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	

GIMNASTIKANING O'ZBEKISTONGA KIRIB KELISH VA RIVOJLANISH TARIXI

N. Q. Mamasidova

Termiz davlat pedagogika instituti sport faoliyati va chaqiriqqacha harbiy ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish tarixi va uning bosqichma-bosqich rivojlantirish jarayoni yoritilgan. Tadqiqotda gimnastikaning XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining harbiy jismoniy tayyorgarlik tizimi orqali hududga kirib kelgani, dastlab harbiy mashg'ulotlar hamda ta'lim muassasalarida qo'llanilgani tahlil qilinadi. Shuningdek, sovet davrida sport jamiyatlari faoliyati, jismoniy tarbiya institutlarining tashkil etilishi va gimnastikaning mustaqil sport turi sifatida shakllanishi ko'rib chiqilgan. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Gimnastika federatsiyasi faoliyati, zamonaviy sport infratuzilmasining yaratilishi hamda xalqaro maydondagi yutuqlar alohida ta'kidlanadi. Ayniqsa, Irina Viner va Oksana Chusovitina kabi mashhur sport arboblarning O'zbekiston gimnastikasi rivojiga qo'shgan hissasi ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: gimnastika, jismoniy tarbiya, sport jamiyatlari, badiiy gimnastika, sport gimnastikasi, Olimpiya o'yinlari.

Abstract: This article examines the history of the introduction of gymnastics into Uzbekistan and the main stages of its development. The study analyzes how gymnastics was introduced in the early 20th century through the military physical training system of the Russian Empire and later implemented in military units and educational institutions. The formation of gymnastics as an independent sport during the Soviet period, including the activities of sports societies and physical education institutes, is also discussed. Special attention is given to the development of gymnastics during the years of independence, the role of the Uzbekistan Gymnastics Federation, and the achievements of Uzbek athletes at the international level. The contribution of Irina Viner and Oksana Chusovitina to the development of rhythmic and artistic gymnastics is particularly emphasized.

Key words: gymnastics, physical education, sports societies, rhythmic gymnastics, artistic gymnastics, Olympic Games.

Аннотация: В данной статье рассматривается история проникновения гимнастики в Узбекистан и этапы её развития. Анализируется процесс внедрения гимнастических упражнений в начале XX века через военную систему физической подготовки Российской империи, а также их использование в военных частях и образовательных учреждениях. Освещается становление гимнастики как самостоятельного вида спорта в советский период, деятельность спортивных обществ и институтов физической культуры. Особое внимание уделяется развитию гимнастики в годы независимости, роли Федерации гимнастики Узбекистана и достижениям узбекских спортсменов на международной арене. Подчёркивается вклад Irina Viner и Oksana Chusovitina в развитие художественной и спортивной гимнастики.

Ключевые слова: гимнастика, физическое воспитание, спортивные общества, художественная гимнастика, спортивная гимнастика, Олимпийские игры.

KIRISH

Gimnastika jismoniy tarbiyaning eng qadimiy va samarali vositalaridan biri bo'lib, inson organizmini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston'da gimnastikaning shakllanishi va rivojlanishi umumiy jismoniy tarbiya tizimining vujudga kelishi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu maqolada gimnastikaning O'zbekiston'ga kirib kelish tarixi hamda bu jarayonda muhim rol o'ynagan shaxslar haqida so'z yuritiladi.

Manbalarga ko'ra, gimnastika O'zbekiston'ga XX asr boshlarida, ya'ni O'rta Osiyo hududida zamonaviy jismoniy tarbiya tizimi shakllana boshlagan davrda kirib kelgan. Dastlab gimnastika mashqlari harbiy tayyorgarlik, maktab jismoniy tarbiya mashg'ulotlari hamda sog'lomlashtirish ishlari tarkibida qo'llanilgan. Bu davrda gimnastika asosan umumrivojlantiruvchi mashqlar ko'rinishida bo'lib, organizmni chiniqtirishga qaratilgan edi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Gimnastikaning O'zbekiston'da joriy etilishida rus pedagoglari, harbiy mutaxassislar va jismoniy tarbiya o'qituvchilari muhim rol o'ynagan. Ular Yevropa gimnastika maktabiga xos bo'lgan mashqlarni, gimnastik snaryadlardan foydalanish usullarini o'quv jarayoniga tatbiq etganlar. Aynan shu mutaxassislar orqali turnik, brus, gimnastik skameyka va boshqa jihozlar bilan ishlash yo'lga qo'yilgan. 1920-1930-yillardan boshlab O'zbekiston'da jismoniy tarbiya institutlari, sport jamiyatlari (masalan, "Dinamo", "Spartak", "Lokomotiv") tashkil etilib, gimnastika mustaqil sport turi sifatida rivojlana boshladi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O'rta Osiyo hududi Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan bo'lib, bu yerda Turkiston harbiy okrugi faoliyat yuritgan. Mazkur harbiy tuzilma nafaqat harbiy boshqaruv, balki askarlarning jismoniy tayyorgarligi, sog'lig'i va intizomini ta'minlash bilan ham shug'ullangan. Aynan shu jarayonda gimnastika mashqlari O'zbekiston'ga kirib kelgan.

Butun Rossiya miqyosida tan olingan harbiy-pedagoglar. Garchi O'zbekiston'da xizmat qilgan har bir harbiy instruktorning ismi tarixda alohida qayd etilmagan bo'lsa-da, gimnastikaning harbiy tizim orqali yoyilishiga asos bo'lgan nazariy va metodik maktab quyidagi shaxslar nomi bilan bog'liq.

A.D. Butovskiy. U Rossiyada jismoniy tarbiya va gimnastika nazariyasining asoschilaridan biri bo'lib, harbiy uchun gimnastika mashqlarini tizimlashtirgan. Butovskiy ishlab chiqqan metodikalar Rossiya imperiyasining barcha harbiy okruglarida, jumladan, Turkiston harbiy okrugida ham qo'llanilgan.

P.F. Lesgaft. Lesgaft harbiy va fuqarolik jismoniy tarbiya tizimiga ilmiy asos bergan mashhur pedagog bo'lib, uning qarashlari rus harbiy maktablarida asosiy qo'llanma bo'lgan. Lesgaftning ilmiy g'oyalari asosida tayyorlangan harbiy o'qituvchilar O'rta Osiyoda ham faoliyat yuritgan. Lesgaft va Butovskiy bevosita O'zbekistonga kelib gimnastika o'rgatgan emas, ammo ularning tizimi bo'yicha tayyorlangan rus harbiylari bu mashqlarni mazkur hududga olib kirgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Gimnastikaning mahalliy hayotga singib ketishi rus harbiylari tomonidan joriy etilgan gimnastika mashqlari orqali amalga oshgan bo'lib, keyinchalik ushbu mashqlar maktab jismoniy tarbiya darslariga, pedagogik bilim yurtlariga hamda sport jamiyatlariga (keyinchalik "Dinamo", "Spartak") o'tkazilgan. Shu tariqa dastlab harbiy tizim tarkibida shakllangan gimnastika mashqlari fuqarolik jismoniy tarbiyasining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Gimnastikani O'zbekistonga olib kirgan asosiy kuch alohida bir shaxs emas, balki Rossiya imperiyasining harbiy jismoniy tayyorgarlik tizimi bo'lgan.

Mazkur tizim harbiy qismlardagi jismoniy tayyorgarlik instruktori bo'lgan ofitserlar, harbiy bilim yurtlari va kadet korpuslari hamda garnizonlar huzuridagi o'quv-mashg'ulot maydonlari orqali faoliyat yuritgan. Ushbu muassasalarda askarlar bilan saf mashqlari, erkin gimnastika mashqlari, turnik va bruslarda bajariladigan mashqlar muntazam ravishda o'tkazilgan. Vaqt o'tishi bilan ushbu mashg'ulotlar ta'lim muassasalari va sport tashkilotlari faoliyatiga ham kirib borib, gimnastikaning ommalashishiga xizmat qilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mustaqillik davrida gimnastikaning rivoji yangi bosqichga ko'tarildi. 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, gimnastika sportiga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Gimnastika Federatsiyasi faoliyati yo'lga qo'yildi, zamonaviy sport inshootlari barpo etildi hamda xalqaro sport hamkorligi kengaydi. Ayniqsa, badiiy gimnastika sohasida O'zbekiston sportchilari xalqaro maydonda katta yutuqlarga erisha boshladilar. Bu jarayonda Irina Aleksandrovna Vinerning hissasi alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Irina Aleksandrovna Viner 1948-yil 30-iyulda O'zbekiston Respublikasining Samarqand shahrida tug'ilgan bo'lib, yoshligidan sportga, xususan, badiiy gimnastikaga qiziqish bildirgan. U sport faoliyatini aynan O'zbekistonda boshlagan va dastlabki bilim hamda tajribani shu yerda olgan.

Irina Viner O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutida tahsil olib, badiiy gimnastika nazariyasi va amaliyotini chuqur o'rgangan hamda kelajakdagi murabbiylik faoliyati uchun mustahkam ilmiy va amaliy poydevor yaratgan. U murabbiylik faoliyatini 1970-yillarda O'zbekistonda boshlagan va qisqa vaqt ichida yuqori talabchanligi, qat'iy intizomi hamda yangicha metodik yondashuvi bilan ajralib turgan. Aynan shu davrda u yosh gimnastikachilarni tanlash, ularni bosqichma-bosqich tayyorlash va musobaqalarga olib chiqish bo'yicha samarali tizim ishlab chiqqan. Irina Aleksandrovna Viner zamonaviy badiiy gimnastika tarixidagi eng nufuzli murabbiylardan biri sifatida tanilgan bo'lib, u nafaqat Rossiya, balki O'zbekiston va butun jahon badiiy gimnastikasining shakllanishi hamda rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Uning faoliyati sportchilarning yuqori natijalarga erishishida, murabbiylik maktabining shakllanishida hamda badiiy gimnastikaning keng ommalashuvida katta ahamiyat kasb etadi. U O'zbekistonda faoliyat olib borgan yillarda badiiy gimnastika jadal rivojlanib, ko'plab iqtidorli sportchilar aynan Irina Viner qo'l ostida shakllangan.

Keyinchalik Irina Viner murabbiylik faoliyatini Rossiyada davom ettirib, Rossiya badiiy gimnastika terma jamoasi bosh murabbiyi sifatida jahon sport maydonida tanildi. Uning rahbarligi ostida tayyorlangan gimnastikachilar Olimpiya o'yinlari, jahon va Yevropa chempionatlarida ko'plab oltin medallarni qo'lga kiritdilar. Irina Viner murabbiyligida yetishib chiqqan sportchilar orasida Olimpiya chempionlari, jahon chempionatlari g'oliblari hamda Yevropa chempionatlari sovrindorlari mavjud bo'lib, u badiiy gimnastikada yetakchi murabbiy sifatida e'tirof etilgan. Uning murabbiylik uslubi yuqori intizom va talabchanlik, texnika hamda san'at uyg'unligiga katta e'tibor qaratish, sportchilarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish hamda murakkab va innovatsion mashqlarni qo'llash kabi jihatlar bilan ajralib turadi. U badiiy gimnastikani nafaqat sport, balki san'at turi sifatida rivojlantirish tarafdori bo'lgan.

Irina Viner O'zbekistonda badiiy gimnastika maktabining shakllanishida ham muhim o'rin tutadi. U respublikada murabbiylik maktabining rivojlanishiga, yosh sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirishga hamda badiiy gimnastikaning ommalashuviga katta hissa qo'shgan. Shu sababli ko'plab ilmiy va sport manbalarida u o'zbek badiiy gimnastika maktabining asoschilaridan biri sifatida tilga olinadi. Irina Viner Rossiya Federatsiyasining eng yuksak mukofotlaridan biri – "Mehnat Qahramoni" faxriy unvoni bilan taqdirlangan. Ushbu unvon unga sport sohasidagi uzoq yillik samarali mehnati hamda Olimpiya chempionlarini tayyorlashdagi ulkan hissasi uchun berilgan.

Bundan tashqari, u sport jamoatchiligi tomonidan "Xalq murabbiyi" sifatida tan olingan hamda "Vatan oldidagi xizmatlari uchun" ordeni bilan bir necha darajalarda mukofotlangan. Shuningdek, u "Do'stlik" ordeni bilan ham taqdirlangan bo'lib, ushbu mukofot sport orqali xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash va xalqaro sport aloqalarini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun beriladi. Oksana Aleksandrovna Chusovitina sport gimnastikasi tarixida betakror o'rin egallagan afsonaviy sportchi hisoblanadi. U o'zining uzoq davom etgan sport faoliyati, yuqori mahorati va qat'iy irodasi bilan nafaqat O'zbekiston, balki butun jahon sport jamoatchiligi e'tirofiga sazovor bo'lgan. Oksana Chusovitina 1975-yil 19-iyunda Buxoro viloyatida tug'ilgan bo'lib, uning sport faoliyati O'zbekiston bilan chambarchas bog'liq. U juda yoshligidanoq sportga qiziqish bildirgan va 7 yoshidan gimnastika bilan shug'ullana boshlagan. Uning tabiiy iste'dodi, epcilligi hamda jismoniy kuchi murabbiylar e'tiborini erta tortgan va qisqa vaqt ichida u sport gimnastikasining murakkab elementlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan.

Oksana Chusovitinaning professional sport faoliyati 1980-yillarning oxirida boshlangan. U dastlab SSSR terma jamoasi safida xalqaro musobaqalarda qatnashgan. 1991-yilda SSSR parchalangach, u O'zbekiston terma jamoasi safida sport faoliyatini davom ettirgan. Oksana Chusovitina sport gimnastikasi tarixida eng ko'p Olimpiya o'yinlarida qatnashgan ayol gimnastikachi sifatida tanilgan. U 1992-yil Barselona, 1996-yil Atlanta, 2000-yil Sidney, 2004-yil Afina, 2008-yil Pekin, 2012-yil London, 2016-yil Rio-de-Janeyro hamda 2021-yil Tokio Olimpiya o'yinlarida ishtirok etgan. Faoliyati davomida u jahon chempionatlari, Yevropa chempionatlari hamda jahon kubogi bosqichlarida ko'plab medallarni qo'lga kiritgan. Ayniqsa, tayanch sakrash yo'nalishida yuqori natijalarga erishgan bo'lib, gimnastikadagi murakkab elementlardan biri uning nomi bilan – "Chusovitina sakrashi" deb ataladi. Bu sportchining texnik darajasi va sport tarixidagi o'rnini yaqqol ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, gimnastika O'zbekistonga XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining harbiy jismoniy tayyorgarlik tizimi orqali kirib kelgan va dastlab harbiy qismlar hamda ta'lim muassasalarida qo'llanilgan. Keyinchalik u sport jamiyatlari hamda jismoniy tarbiya institutlari faoliyati orqali mustaqil sport turi sifatida shakllangan.

Mustaqillik yillarida esa O'zbekiston Gimnastika Federatsiyasining tashkil etilishi bilan gimnastika sporti yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Irina Viner badiiy gimnastika maktabining shakllanishiga katta hissa qo'shgan bo'lsa, Oksana Chusovitina O'zbekiston sport gimnastikasini jahon miqyosida tanitgan. Natijada gimnastika O'zbekistonda tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tib, bugungi kunda xalqaro maydonda muvaffaqiyatli rivojlanayotgan sport turlaridan biriga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.01.2025 yildagi PF-5924-son "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2017. <https://lex.uz/ru/docs/-4711327>
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 04.09.2015-yildagi O'RQ-394-son "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2015. <https://lex.uz/ru/docs/-2742233>
3. Матвеев Л. П. Теория и методика физической культуры. – Москва: Спорт, 2008. – 543 с.
4. Платонов В. Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – Киев: Олимпийская литература, 2004. – 808 с.
5. Kerimov F. A. Sport mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: Ilm Ziya, 2005. – 220 b.
6. Usmonxo'jayev T. S., Xo'jayev F. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 300 b.
7. Abdullayev A. Jismoniy tarbiya va sport tarixi. – Toshkent: Fan, 2010. – 256 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.